



Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarning psixofizik, nutqiy va muloqot tizimi xususiyatlari

Buzrukova Dilorom Mamirxonovna –

Farg'ona davlat universiteti dotsent
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: md.buzrukova@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-2780-9087>

Rasulova Feruzabonu Ilxomjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarning o'ziga xos psixofizik rivojlanishi, nutqiy tizimidagi o'zgarishlar va muloqot jarayonida yuzaga keladigan psixologik to'siqlar tizimli tahlil qilingan. Duduqlanish murakkab nutq patologiyasi bo'lib, u faqatgina artikulyatsion apparatdagi tortishishlar bilan cheklanmay, bolaning emotsional-irodaviy sohasiga va tengdoshlari bilan muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida duduqlanish tashxisi qo'yilgan maktabgacha yoshdagi bolalarning psixomotorikasi, logofobiya ya'ni nutqdan qo'rqish darajasi va muloqotga kirishish xususiyatlari maxsus metodikalar yordamida o'rganildi. Maqolada duduqlanuvchi bolalarning psixofizik va nutqiy tizimini korreksiya qilishga qaratilgan kompleks pedagogik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: duduqlanish, maktabgacha yosh, psixofizik rivojlanish, logofobiya, muloqot tizimi, korreksion pedagogika, emotsional xavotirlik, muloqot madaniyati.

Особенности психофизической, речевой и коммуникативной системы детей дошкольного возраста с заиканием

Аннотация. В данной статье системно анализируются особенности психофизического развития детей дошкольного возраста с заиканием, изменения в их речевой системе и психологические барьеры, возникающие в процессе общения. Заикание рассматривается как сложная речевая патология, которая не ограничивается лишь судорогами артикуляционного аппарата, но также оказывает негативное влияние на эмоционально-волевую сферу ребёнка и культуру общения со сверстниками. В ходе исследования с использованием специальных методик изучались психомоторика дошкольников с диагнозом заикания, уровень логофобии (страха речи) и особенности коммуникативного поведения. В статье предложены комплексные педагогические рекомендации, направленные на коррекцию психофизического и речевого развития детей с заиканием.

Ключевые слова: заикание, дошкольный возраст, психофизическое развитие, логофобия, система общения, коррекционная педагогика, эмоциональная тревожность, культура общения.

Peculiarities of the psychophysical, speech, and communication system of preschool children with stuttering

Annotation. *This article systematically analyzes the psychophysical development characteristics of preschool children with stuttering, changes in their speech system, and psychological barriers that arise during communication. Stuttering is considered a complex speech disorder that is not limited to articulatory spasms but also negatively affects the child's emotional-volitional sphere and communication skills with peers. The study examined the psychomotor development of preschool children diagnosed with stuttering, the level of logophobia (fear of speaking), and their communicative behavior using special methodologies. The article presents comprehensive pedagogical recommendations aimed at correcting the psychophysical and speech development of children with stuttering.*

Keywords: *stuttering, preschool age, psychophysical development, logophobia, communication system, corrective pedagogy, emotional anxiety, communication culture.*

KIRISH

Maktabgacha yosh davri bolaning nutqi, tafakkuri va ijtimoiy muloqot ko'nikmalari eng jadal shakllanadigan bosqichdir. Biroq, aynan shu davrda ya'ni 3 yoshdan 5 yoshgacha bolalarda nutq mexanizmining funksional zaifligi sababli nutqiy kamchiliklar, xususan, duduqlanish ko'p kuzatiladi. Duduqlanish - nutq a'zolarining mushaklarida spazm va tortishishlar natijasida nutqning sur'ati, ritmi va ravonligining buzilishidir. Zamonaviy logopediya va surdopedagogika fani duduqlanishni shunchaki lokal nutq nuqsoni emas, balki butun organizmning, xususan, markaziy asab tizimining umumiy psixofizik holati bilan bog'liq murakkab sindrom sifatida talqin etadi[1]. Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqiy muammo bevosita ularning xulq-atvori va muloqot tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Nutqiy to'siqlar sababli bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi, begonalashish va muloqot faolligining pasayishi kuzatiladi. Agar ushbu yoshda kompleks korreksion-pedagogik choralar ko'rilmasa, maktab davriga kelib logofobiya ya'ni nutqiy vaziyatlardan qo'rqish chuqurlashib, bolaning o'zlashtirish darajasiga va shaxs sifatida shakllanishiga jiddiy zarar yetkazadi.

Nutq patologiyalari orasida duduqlanish o'zining kelib chiqish tabiati, klinik manzarasi va korreksiyalash qiyinligi bilan ajralib turadi. Logopediya elitasida duduqlanish - bu nutqiy muloqot jarayonida nutq apparati mushaklarining qisqarishi natijasida nutqning sur'ati, ritmi va ravonligining buzilishidir. Bunday holat konvulsiv ya'ni titroq (tutqanoq) jarayonida yuzaga keladi. Konvulsiv holat (titroq yoki tutqanoq) - bu miya faoliyatining to'satdan va vaqtincha buzilishi natijasida kelib chiqadigan, ixtiyorsiz mushak qisqarishlari bilan kechadigan patologik holatdir. Tibbiyotda bu ko'pincha markaziy asab tizimidagi neyronlarning haddan tashqari va tartibsiz elektr signallari ishlab chiqarishi tufayli yuzaga keladi.

Logopediya va surdopedagogika nuqtayi nazaridan hamda umumiy tibbiy amaliyotda konvulsiv holatlarni tushunish juda muhim, chunki ular bolaning umumiy rivojlanishiga va nutq apparatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tutqanoq sindromi mustaqil kasallik bo'lishi yoki boshqa bir kasallikning simptomi (belgisi) sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Tibbiyot tilida epilepsiya deb ataladi. Bu surunkali nevrologik kasallik bo'lib, takroriy, sababsiz tutqanoqlar bilan xarakterlanadi. Tez-tez takrorlanadigan umumiy tutqanoqlar markaziy asab tizimini toliqtiradi, bu esa diqqat, xotira va nutq motorikasining rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin. Kelib chiqish sabablari turlicha, asosan 6 oylikdan 5

yoshgacha bo'lgan bolalarda, tana harorati keskin ko'tarilganda (38°C dan yuqori) kuzatiladigan qisqa muddatli holat yoki organizmda kalsiy, magniy yoki glyukoza miqdorining keskin kamayib ketishi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy fan yutuqlari (logopediya, nevrologiya, psixolingvistika va nefrofiziologiya) duduqlanishni shunchaki nutq organlarining periferik nuqsoni emas, balki markaziy asab tizimining funksional holati, oliy nerv faoliyati va shaxs psixologiyasining o'zaro murakkab disbalansi natijasi o'laroq talqin etadi. Duduqlanish muammosi qadimdan shifokorlar va pedagoglar diqqat markazida bo'lib kelgan. Aristotel va Gippokrat uni til va nutq apparati a'zolarining anatomik yetishmovchiligi yoki namlikning me'yordan ortiqcha ekanligi bilan izohlaganlar. XIX asrga kelibgina duduqlanishga nevrologik nuqtayi nazardan qarala boshlandi. Xususan, rus olimlari I.A.Sikorskiy, keyinchalik esa V.A.Gilyarovskiy, R.E. Levina hamda mahalliy soha namoyandalari duduqlanishni markaziy nevroz yoki oliy nerv faoliyatining buzilishi sifatida baholaganlar[1]

Zamonaviy maxsus pedagogikada duduqlanishga tibbiy-psixologik-pedagogik fenomen sifatida qaraladi. Bu yondashuv shuni anglatadiki, patologiya markazida faqat tutilish emas, balki bolaning umumiy nevrotik holati, muloqotga kirishish qobiliyatining pasayishi va shaxsiy emotsional xavotirlanishi turadi. Duduqlanish etiologiyasini o'rganishda akademik M.E.Xvattsev va uning izdoshlari sabablarni ikki guruhga ajratishni taklif etadilar: moyillik yaratuvchi va turtki bo'luvchi-yuzaga keltiruvchi omillar. Ushbu tasnif bugungi kunda ham fundamental hisoblanadi[2]. Duduqlanish fenomenining tabiati va uning paydo bo'lish mexanizmlari uzoq yillardan buyon dunyo va milliy logopediya fanining eng ko'p muhokama qilinadigan global muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Turli davrlarda yashab ijod etgan olimlar ushbu nuqsonga etiologik jihatdan turlicha yondashganlar.

Amerikalik mashhur logoped-psixolog olim Vandell Jonson duduqlanishning kelib chiqishida "Diagnosogenik nazariya"ni ilgari surgan. Jonsonning fikricha, duduqlanish aslida bolaning nutq a'zolarida emas, balki ota-onalarning qulog'ida va reaksiyasida boshlanadi. U maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiiy nutqiy to'xtalishlari va takrorlariga ota-onalar tomonidan noto'g'ri va o'ta xavotirli munosabat bildirilishi, bolaga asossiz ravishda "duduq" diagnozi qo'yilishi natijasida bola o'z nutqidan qo'rqib qolishini ta'kidlaydi. Jonson maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda birinchi navbatda oilaviy nutqiy muhitni korreksiyalashni taklif etgan[1].

Rus maxsus pedagogikasida duduqlanishni o'rganish va uni bartaraf etish tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Bu maktab vakillari duduqlanishni markaziy asab tizimi kasalliklari va logopedik ta'sirlar uyg'unligida ko'rib chiqadilar. Mashhur logoped-olim, professor R.E.Levina duduqlanishga psixolingvistik nuqtayi nazardan yondashgan. U maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanish ko'pincha ularning nutqiy tayyorgarligi va fikrlash sur'ati o'rtasidagi nomutanosiblikdan kelib chiqishini ko'rsatib bergan. Ya'ni, bolaning fikrlash faoliyati jadal rivojlanadi, biroq uning til vositalari lug'at boyligi, grammatik qurilishi bu fikrni to'liq ifodalashga ulgurmaydi. Levina duduqlanuvchi bolalarda muloqot madaniyatini shakllantirish uchun ularning faol so'zlashuv nutqini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini asoslagan[1]. N.A.Vlasova esa duduqlanishni bartaraf etishda klinik-pedagogik yondashuvni o'z tadqiqotida asoslab bergan. U maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar uchun maxsus korreksion bog'chalar tizimini yaratgan. Lyapidevskiy esa duduqlanish patogeneza bosh miya qobig'i osti tugunlarining zaifligini va bu zaiflikni faqatgina shifokor nevropatolog va logopedning hamkorlikdagi duduqlanishga qarshi kompleks ishlari orqali yengish mumkinligini isbotladi.[2]

O'zbekistonda duduqlanish muammosi, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini o'rganish va ularni o'zbek tili qonuniyatlari asosida korreksiyalash muammolari mahalliy olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Mirali G'ulomovich Asadov O'zbekiston

logopediya fani poydevorini qo'ygan fundamental olimlardan biri. U o'z ilmiy tadqiqotlarida anomal bolalar, xususan nutqida nuqsoni bor maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama o'rganish muammolarini yoritgan. U duduqlanishni bartaraf etishda bolaning milliy muloqot muhitini, ya'ni oiladagi nutq madaniyatini, milliy qadriyatlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Olim duduqlanuvchi bolalarda nutqiy faollikni oshirish va ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda ta'limiy o'yinlarning o'rnini yuqori baholagan[1].

T.M.Isayeva tadqiqotida duduqlanishning klinik ko'rinishlari, logonevroz va logokloniyaning farqlari, shuningdek, nutqiy muammolarda foydalaniladigan artikulyatsion va nafas mashqlari tizimi haqida bayon qilgan va duduqlanishga psixologik yondashuvni logopedik amaliyot bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlagan. Sh.A.Raxmatullayevaning Maxsus pedagogika va logopediya kitobida nutqiy buzilishlar tasnifi, logopedik tashxis, duduqlanuvchi bolalarning rivojlanishiga ijtimoiy muhit va oilaning ta'siri, zamonaviy terapiya metodlari interaktiv, multimodal va musiqiy terapiya haqida ma'lumotlar mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nutq nuqsonlari duduqlanish yoki eshitishida muammosi bo'lgan bolalar bilan ishlashda konvulsiv tayyorgarlik yoki xurujlar tarixiga alohida e'tibor berilishi lozim. Mashg'ulotlar davomida logoped bolani haddan tashqari hissiy va intellektual toliqtirmasligi, mnemotexnika va o'yin texnologiyalaridan foydalanganda tinchlantiruvchi, psixologik qulay muhit yaratishi shart. Chunki, duduqlanishning patofiziologik asosi ham ko'pincha nutq apparati mushaklarining til, lab, tomoq lokal konvulsiyalari (qisqarishlari) bilan bog'liq.

Zamonaviy logopediya fanida duduqlanishni bartaraf etish va uning oqibatlarini yumshatish bo'yicha turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan, logopedik texnologiyalardan foydalanish orqali nutqiy faoliyatni tiklash, psixologik holatni barqarorlashtirish va bolaning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash imkoniyati mavjud[3] Bu texnologiyalar orasida individual va guruhviy mashg'ulotlar, interaktiv o'yinlar, vizual-audial stimulyatorlar hamda multimodal metodlardan foydalanish keng qo'llanilmoqda.

Logopedik mashg'ulotlar duduqlanuvchi bolaning nutqi va shaxsiga pedagogik-tuzatish orqali ta'sir etishning asosiy vazifalarini o'zida aks ettiradi. Logopedik mashg'ulotlar muayyan tartibda, uzluksiz, bosqichli, asosiy didaktik prinsiplarni hisobga olgan holda har bir bolaning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq ravishda; bolalarning ongliligi va faolligiga tayangan holda olib boriladi; mashg'ulotlarda qo'llanmalar, ta'limning ko'rgazmali, texnik vositalaridan foydalaniladi; mashg'ulotlar tarbiyalanayotgan to'g'ri nutq va xatti-harakat ko'nikmalarining mustahkam bo'lishiga yordam beradi[4].

Logopedik mashg'ulotlar maktabgacha tarbiya yoshidagi va maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturlari talablariga mos bo'lishi shart. Mashg'ulotlarda duduqlanadigan bolalarning turli sharoitlarda to'g'ri nutqi va xatti-harakatini mashq qildirish zarurligi hisobga olinadi, masalan: logopediya kabinetida va undan tashqarida, turli hayotiy vaziyatlarda, tanish va notanish shaxslarning ishtirokida va hokazo. Shu maqsadda logopedik mashg'ulotlarning turli ko'rinishlari: nutqni rivojlantirishga doir ko'pgina ish shakllari, didaktik, harakatli, sujetli-rolli va ijodiy o'yinlar, sayohatlar, ertaliklar, konsertlarga tayyorlanish hamda ularda ishtirok etish, mikrofon oldida so'zga chiqish va boshqalarda qo'llaniladi. Mashg'ulotlar shunday tashkil qilinadiki, ularda bola duduqlanishsiz va u bilan birga kelib chiqadigan buzilishlarsiz gapirishi lozim. Mashg'ulotlar boladagi yaxshi kayfiyatni, bardamlik, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi. Duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda to'g'ri nutq namunalari logopedning, samarali shug'ullanadigan bolalarning nutqi, badiiy so'z ustalarining chiqishlari aks ettirilgan magnitofon yozuvlari va plastinkalar, logopediya kursini avval muvaffaqiyatli tamomlaganlarning tantanali chiqishlari bolalarda kata qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulotlar atrofda qiladigan duduqlanadigan bolaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishlari va to'g'ri tarbiyalanishi asosida olib boriladi[5].

Nafas korreksiyasi mexanizmi ya'ni duduqlanuvchilarda ko'pincha klavikulalar ya'ni ko'krak-yelka nafas turi kuzatiladi, bu esa nutq paytida havo yetishmasligiga va toshmalarga sabab bo'ladi. Mashg'ulotlarda diafragmal-qorin nafas turi shakllantiriladi. Buning uchun nafas gimnastikasi elementlaridan keng foydalaniladi. Maqsad – qisqa, tez va chuqur nafas olish hamda uzoq, ravon va tejamkor nutqiy nafas chiqarish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Ovoz va artikulyatsiya korreksiyasida ovoz paychalarining haddan tashqari taranglashuvini kamaytirish uchun yumshoq ovoz pardasi bilan gapirish, unli tovushlarni cho'zib aytish va nutq apparati mushaklarini bo'shashtirish mashqlari o'tkaziladi.

Logopedik ritmika bu – harakat, musiqa va so'z birgalikda qo'llaniladigan maxsus mashg'ulotlar tizimi. Logoritmika umumiy va nutqiy motorikani muvofiqlashtiradi, harakatlar tormozlanishi va qo'zg'aluvchanligini normallashtiradi. Ushbu bosqichda shakllantirilgan silliq nutq ko'nikmasi turli nutqiy vaziyatlarda avtomatlashtiriladi va mustahkamlanadi.[6]

Mashg'ulotlar qat'iy belgilangan nutqiy yuklamalar ierarxiyasi oddiydan murakkabga o'tish asosida tashkil etiladi: Sukut saqlash rejimi asosan mashg'ulotlarning dastlabki kunlarida nutq apparatiga dam berish va patologik nutq refleksini so'ndirish uchun qo'llaniladi.

Pichirlab gapirish rejimi esa ovoz paychalari toshmalarini bartaraf etish va nutqni nazorat qilishni o'rgatish uchun xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Duduqlanish faqat nutq muammosi emas; u shaxsning ijtimoiy munosabatlariga, o'zini o'zi qadrlashiga va umumiy hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kechikishni tushunish, erta aralashuv samarali davolash uchun juda muhim bo'lib, uni nutq-til patologiyasi va umumiy salomatlik sohasida muhim mavzuga aylantiradi. Chunki, duduqlanish - bu nutqning ritmi va ravonligiga ta'sir qiluvchi aloqa buzilishi bo'lib, bu bolalarda ham, kattalarda ham paydo bo'lishi mumkinligi fanda isbotlangan, u ko'pincha yosh bolalarda til ko'nikmalarini rivojlantirganda kuzatiladi.

Duduqlanishning zo'ravonlik darajasi har xil bo'lishi mumkin va unga turli omillar, jumladan stress, hayajon yoki charchoq ta'sir qilishi mumkin. Ko'pgina bolalar duduqlanishdan oshib ketishi mumkin bo'lsa-da, ba'zilar uchun u balog'at yoshiga qadar davom etishi mumkin, bu doimiy boshqaruv va yordamni talab qiladi. Duduqlanish, birinchi navbatda, rivojlanishning buzilishi bo'lsa-da, ba'zi atrof-muhit omillari vaziyatni yanada kuchaytirishi mumkin. Masalan, hayotdagi jiddiy o'zgarishlar yoki travma bilan bog'liq bo'lgan yuqori stressli muhitlar duduqlanish epizodlarini qo'zg'atishi yoki yomonlashtirishi mumkin. Biroq, qoqinishning boshlanishi bilan yuqumli agentlarni bog'laydigan to'g'ridan-to'g'ri dalillar yo'q.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, genetika duduqlanishda rol o'ynashi mumkin. Nutq va til rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos genlar aniqlangan, bu oilada duduqlanish tarixi bo'lgan shaxslar yuqori xavf ostida bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Duduqlanish - bu inson hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan murakkab nutq buzilishi. Samarali davolash uchun uning sabablari, belgilari va davolash usullarini tushunish muhimdir. Shaxsiy yo'l-yo'riq va davolash usullari uchun har doim tibbiy yordam ko'rsatuvchi provayderga murojaat qilish shart. Ogohlikni rivojlantirish va erta aralashuvni rag'batlantirish orqali biz ushbu nutq buzilishidan aziyat chekadigan odamlarni hayotlarini to'liq boshqarishda qo'llab-quvvatlashimiz mumkin[7]. Inson hayotining muhim tarkibiy qismi bo'lgan nutq faoliyati orqali shaxs o'z fikrlarini ifodalaydi, atrof-muhit bilan muloqotga kirishadi va ijtimoiylashadi. Duduqlanish faqat fonetik nuqson emas, balki kompleks psixonevrologik muammo sifatida qaraladi. Bu esa logopedik ish jarayonida nafaqat artikulyatsion mashqlar, balki bola psixikasini tiklash va kommunikativ malakalarni rivojlantirishga ham e'tibor qaratishni talab qiladi[8]. Shunday qilib, duduqlanish muammosining zamonaviy talqini uning ko'p omilli ekanligini ko'rsatadi. Bu muammoning

zamidida oliy nerv faoliyatining beqarorligi, miya markazlarining nutqiy ritm va sur'atni boshqarish funksiyasining susayishi yotadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, korreksion ishlarni faqat nutq apparati mashqlari bilan cheklamay, balki bolaning psixosomatik va emotsional holatini umumiy sog'lomlashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, duduqlanish mavjudligi bolani so'zlashuv vaziyatlaridan qochishga majbur qiladi, natijada uning muloqot doirasi hamda umumiy rivojlanish darajasi qisqaradi. Shubha, ehtiyotkorlik, o'zi va tengdoshlari o'rtasidagi farq mavjudlik hissi yuzaga keladi. Bolada ota-onasi, sinfdoshlar, tengdoshlar o'rtasidagi tushunmovchilik tufayli, ajralganlik va kamsitilganlik hissi paydo bo'ladi. Ta'sirchanlik oshadi, qo'rquv paydo bo'ladi, bu ruhiyatning tushkunligiga va duduqlanishni yanada kuchayishiga olib kelishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarning psixofizik, nutqiy va muloqot tizimlarini tizimli-strukturaviy tahlil qilish quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi: Duduqlanuvchi maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq tizimining buzilishi nafas, fonatsiya va artikulyatsiyaning asabiy boshqaruv mexanizmlari sinxronligining yo'qolishi hamda tonik-klonik sudorgalarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Muloqot tizimidagi deformatsiyalar bolaning yoshi ulg'aygan sayin chuqurlashib boradi. Katta maktabgacha yosh davrida logofobiya ya'ni nutqiy qo'rquv va o'z nuqsoniga fiksatsiya bo'lish holatlari shakllanadi. Bu esa o'z navbatida shaxsning ijtimoiy izolyatsiyasiga va nevrotizatsiyasiga sabab bo'ladi. Korreksion-pedagogik va logopedik ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish duduqlanishning klinik nevrotik yoki nevrosimon shaklini aniq differensial diagnostika qilishni hamda korreksion ta'sir ko'rsatishda nafaqat nutqni, balki bolaning umumiy motorikasi, psixofizik holati va kommunikativ muhitini ham optimallashtirishni talab etadi.

Taklif sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Erta diagnostikani kuchaytirish: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning nutqiy rivojlanishini muntazam ravishda screening-diagnostika qilish va duduqlanishning dastlabki belgilari (simptomlari) namoyon bo'lishi bilan korreksion ishlarni kechiktirmasdan boshlash zarur.

Logoritmikani joriy etish: Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlar tarkibiga majburiy tartibda logopedik ritmika va musiqiy-badiiy harakatli o'yinlarni ko'proq kiritish lozim.

Ota-onalar pedagogik madaniyatini oshirish: Oilalarda duduqlanuvchi bola bilan muloqot qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayupova M. Logopediya. – Toshkent: 2011.
2. Muminova L. Logopediya. – Toshkent: 2013
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: 2021.
4. Nurkeldiyeva D. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi. – Toshkent: 2021.
5. Mo'minova L. R. Tutilib gapiruvchi o'smirlar uchun qo'llanma. –T: 1980.
6. Amirova G. Logopedik ritmika. – Toshkent: Cho'lpon, 2014.
7. Xamidova M., Pulatova Sh. Duduqlanish va uni bartaraf etish yo'llari. – Toshkent:2018.
8. Fayziyeva M.N. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni korreksiyalash. – Toshkent:2016.